



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING QARORI

2021 y. “17” dekabr

№ 58-garor

### **Statistika ma’lumotlarini ishlab chiqishning milliy modeli umumiy tuzilmasidagi bosqich va jarayonlarni tavsiflovchi uslubiy qo‘llanmani tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796- son qarori ijrosini ta’minlash hamda statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish bosqich va jarayonlarini amalga oshirishni Statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (GSBPM – The generic Statistical Business Process Model) asosida yo‘lga qo‘yish maqsadida, Davlat statistika qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. Statistika ma’lumotlarini ishlab chiqishning milliy modeli umumiy tuzilmasidagi bosqich va jarayonlarni tavsiflovchi uslubiy qo‘llanma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov